

ROSACEA (PUSHTI HUSNBUZAR) KASALLIGI

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Chiroy estetikasi” yo’nalishi 3-kurs talabasi
Egamberganova Sevinch Faxriddin qizi
(PhD) Hakimov Dilshod Rustamovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada rosacea ya’ni pushti husnbuzar kasalligi haqida to’liq ma’lumot berilgan. Umuman olganda, husnbuzar bu – yog’ bezlari faoliyatining buzilishi natijasida teriga turli xil toshmalar toshishi hisoblanadi. Shuningdek, pushti husnbuzar kasalligida terining qizarishi, burun va yonoqlarda turli xildagi toshmalar paydo bo’lib, uzoq muddatli yallig’lanish natijasida ushbu teri kasalligi paydo bo’ladi. Zamonaviy “rosacea” atamasi 1812-yilda Tomas Bateman tomonidan kashf etilgan.

Kalit so’zlar: rosacea, sinnamaldegid, irsiy moyillik, stress, dermatit, etanol, husnbuzar, dermodekoz.

Rosacea – yuz terisining keng tarqalgan yuqumli bo’lmagan epidermis qon tomirining surunkali yallig’lanish kasalligi.

Rosacea bilan kasallanish Yevropa va AQSH da tarqalishi 1 dan 20% gacha, Rossiyada rosacea tarqalishi 5% ni tashkil qiladi. Rosacea erkaklarga qaraganda ayollarda ko’p uchraydi.



Rosacea uchun spirtli ichimliklar, hissiy stress, etanol, sinnamaldegidni o’z ichiga olgan preparatlardan foydalanganda paydo bo’ladi.

Rosacea o’rta yoshdagi dermatozlarga ishora qiladi, kasallikning birlamchi

belgilari 25-35 yoshda kuzatilishi mumkin.

Rosacea o'ziga xos xususiyatga ega. To'g'ri va o'z vaqtida davolanmasa jiddiy alomatlarga olib kelishi mumkin. Masalan:

1. Qovoq, burun, jag' va quloqlarning o'zgarishiga;
2. Konyuktivit;
3. Korma oshqozon yarasi;
4. Og'ir psixologik kassaliklar;

Kasallik sabablari:

- ❖ stress;
- ❖ menopauza davrida gormonal o'zgarish;
- ❖ quyosh, sovuq, shamol ta'siri;
- ❖ dermatit;
- ❖ qizarib ketishga moyil nozik teri;
- ❖ demodekoz;
- ❖ tez-tez kimyoviy tozalash;
- ❖ immun tizimi tushib ketishi;
- ❖ 30% irsiy moyillik;
- ❖ achchiq ziravor, spirtli ichimliklar ichish;

Rosacea alomatlari:

Kasallik hech qanday bezovtalik keltirib chiqarmaydi.

Yuzdagi rosacea bosqichlari:

- ✓ issiq yoki sovuqqa duchor bo'lgandan keyin teri qizarishi;
- ✓ peshona, burun, yanoq, va jag'dagi qizil dog'lar;
- ✓ qizil rangli zonada qon tomirlarining paydo bo'lishi;
- ✓ teri rangining asta-sekin mustaqil ravishda me'yorlash (3-6 kun).

Rosaceaning qolgan belgilari:

- teleangioektaziya;
- tuguncha;
- tugun;
- yiringcha;
- kepaklarnish;
- shish (отек);
- terining ko'rish o'tkirligini buzilishi.

Rosaceaning klinik bosqichi:

1. Eritematoz bosqichi;
2. Papula-pustulyoz bosqichi;
3. Fimatoz;

4. Oftalmarozatsea.

Eritematoz bosqichi - yuzdagi gipermiya asosan (peshona, burun, yanoq) kamdan-kam ko'krak qafasi va telangiektaziya joylarda paydo bo'lib, bir necha kun davom etadi. Shish va kepaklanish paydo bo'ladi.



Papula - pustulyoz bosqichi.

Giperemiyada qalin tugun va pustulalar bilan qoplanadi.

Yuzning markaziy sohalariga va yuzning burun qismiga ham tarqalishi mumkin. Ba'zi hollarda pustula furunkulaga ham aylanib ketishi mumkin.



Fimatoz rosacea (infiltrative - produktiv bosqich).

Yaralangan teri biriktiruvchi to'qima bilan almashadi. Yuz terisi qalinlashadi. Yanoq sohasida qon tomirlari o'rgimchak to'riga o'xshab joylashadi.



Oftakmarozatsea - ko'z yuzasining oftalmik rosacea bilan yallig'lanishi konyuktiv giperemiyasiga follikulyar reaksiyalarga olib keladi.



Rosaceani davolash:

- Rosacea davolashning samaalakali profilaktika qilishdir;
- Yuzingizni iliq va sovuq suvda yuving;
- Quyoshning uzoq vaqt ta'sirla SFP kamida 30 bo'lgan kremlardan foydalaning;
- Sovuq havoda himoya qilish uchun yog'li kremlardan foydalaning;
- Issiq vanna va saunalardan voz keching;
- Uzoq muddatli va intensiv jismoniy faollikni yo'q qiling;
- Gormonal komponentli kremlardan ya'ni steroid komponentlardan foydalanmang;
- Rosaceani davolashda dieta ham alohida o'rin tutadi. Kofe va issiq choy mumkin emas;
- Ratsionga ko'proq meva va sabzavotlarni kiriting.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. <https://www.msmanuals.com/ru>
2. Rosaceaning klinik ko'rinishlari. Polyax Ya.A. Dermatovenerologiya. Kosmetologiya.
3. Rosacea davolashga zamonaviy yondashuv. Teplyuk N., Shurubey V. Doktor No 12, 2015. p. 72-75
4. Trufanov S.V., Shaxbazyan N.P. Oftalmik rosacea: etiopatogenezi va davolashning zamonaviy usullari. Oftalmologiya byulleteni. 2018;134(3):121-128. Trufanov SV, Shaxbazyan NP. Oftalmik rosacea: etiopatogenez va zamonaviy davolash usullari.